

MEHRNING BAHOSI



Bu yigit otasiga: "Qachonlardir boy bo'lsam, zo'r restoranga olib boraman", degan va'dani bermagan. U ota-onaga hurmat ko'rsatish uchun qimmat restoranlarga yoki ko'z-ko'z qilinadigan dabdabali sharoitlarga ehtiyoj yo'qligini isbotlab berayapti. Mehrning asl qadri belgilovchi narsa — insonning ichki olami, ma'naviyati va yuksak tarbiyasi ekanini ko'rsatayapti.

Jamiyatda ota-onaga hurmat ko'rsatish haqida ko'p gapiriladi.

Hamkasblar bilan tushlikka chiqdik. Oshxonaga bir yigit keksa otasi bilan kirib keldi. Odmigina kiyingan ota va o'g'il chetroqdagi stoldan joy olishdi. Yigit otasi bilan maslahatlashib, ovqatga buyurtma berdi. Ularning xatti-harakatlarida bir-biriga bo'lgan hurmat va mehr ko'rinib turardi.

Atrofdagi shovqin-suron ularning sokin va samimiy suhbatiga xalaqit qilmasdi. Yigit otasining ovqatlanishiga yordamlashar, qoshiqdagi, sanchiqdagi taomni otasiga uzatar, sochiqcha bilan otasining labini artib qo'yardi.

Biroq bunday tushunchalarning hayotiy ifodasi ko'pincha mana shunday oddiy, e'tibor berilmaydigan holatlarda namoyon bo'ladi. Farzandning ota-onasiga bo'lgan hurmati jamiyatning ma'naviy ko'rsatkichlaridan biridir. O'sha yigitning tutumi esa ana shu ma'naviyatning amaliy ifodasi sifatida ko'zga tashlandi.

Bugun aksariyat insonlar moddiylikka oshno bo'lgan bir davrda har birimiz mana shunday yigitlardan ibrat olmog'imiz kerak!

Otabek UMIROV,
Sharh tillari fakulteti talabasi

MUZEYIGA SAYOHAT

Samarqand davlat chet tillar instituti rektori Bahodir Xoliqov boshchiligidagi institut professor-o'qituvchilari va talabalar Samarqand shahridagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyiga tashrif buyurishdi.

Muzey ilmiy xodimi mehmonlarga Sho'ro hokimiyati zulmi, murakkab va og'ir yillar voqealari, xalqning ma'rifatga intilishi, el-yurt ozodligi uchun kurashgan otoboblarimizning jasorati va ulkan ma'naviy merosi haqida batafsil ma'lumot berdi. Vatanimiz ozodligi yo'lida jonini fido qilgan mard va fidoyi ajdodlarimizning porloq xotirasi yodga olindi. Muzeyga qilingan bunday tashriflar yoshlar qalbida tarixga hurmat, Vatanga sadoqat va milliy qadriyatlariga mehr tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi.

M.SHIRINBOYEVA,
Ingliz filologiyasi va tarjimonlik fakulteti talabasi

Institutimizda "Rektor kubogi" musobaqalari doirasida talabalar o'rtasida "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Tadbiri Ingliz filologiyasi va tarjimonlik fakulteti dekani M.Ergashev kirish so'zi bilan ochib berdi va bellashayotgan jamoalarga omad tiladi.

"MALADES BOLALAR" – TANLOV G'OLIBI



Oltita jamoa ishtirok etgan ko'rik-tanlovda kubokni "Malades bolalar" jamoasi qo'lga kiritdi.

Elvira AKBAR qizi

DONIYOR — OSIYO CHEMPIONI!



Joriy yilning 13-oktabr kunidan 18-noyabr kuniga qadar Tailandning Pattaya shahrida sportning qo'l jangi turi bo'yicha bo'lib o'tgan Osiyo kubogi musobaqasida Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili fakulteti talabasi Doniyor Baxtiyorov ham faol ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni egalladi va Osiyo chempioni bo'ldi.

Dildora MANSUROVA,
SamDCHTI talabasi

YANGI RENESSANS
Muassis:
Samarqand davlat chet tillar instituti

Muharrir: Muxlisa Ubaydullayeva v.v.b
Tahrir hay'ati: B.XOLIQOV, E.MUSURMONOV, X.XAYRULLAYEV, U.XUSANOV, H.JO'RAYEV
Manzil: Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi 43-uy

Gazeta Samarqand davlat chet tillar instituti Ilmiy kengashi qarori asosida ta'xis etilgan. Gazeta institut talabalari uchun mo'ljallangan.

Gazeta institut "Tahrir-nashriyot" bo'limida chop etildi.

INSTITUTIMIZ REKTORINING INTERVYUSI NUFUZLI XALQARO JURNALDA


"Global Heartbeat Magazine" (AQSHning Baskerville instituti) jurnalida Samarqand davlat chet tillar instituti rektori Bahodir Xoliqov bilan intervyu chop etildi.

"Global Heartbeat Magazine" — xalqaro o'quv va ilmiy jamoatchilik o'rtasida yuqori nufuzga ega bo'lgan, global tahlil va ta'lim diplomatiyasiga oid maqola va materiallarni chop etib kelayotgan nufuzli nashr hisoblanadi. Jurnalning 2025-yil noyabr sonida Samarqand davlat chet tillar instituti rektori Bahodir Xoliqov bilan olib borilgan eksklyuziv intervyu e'lon qilindi.

Unda O'zbekistonda oliy ta'limni transformatsiya qilish jarayonlari, xorijiy universitetlar bilan kengayib borayotgan ikki tomonlama hamkorlik, global ta'lim tendensiyalari va xalqaro reytinglardagi yondashuvlarning ahamiyati, Samarqand davlat chet tillar institutida modernizatsiya siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, tilshunoslik, madaniy diplomatiya yo'nalishlaridagi loyihalar natijalari keng yoritilgan.

Mazkur nashrda institutimizning global maydondagi o'zgarishlarga moslashish jarayoni, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatni yuksaltirish borasidagi tashabbuslar haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Jurnalning mazkur soni bilan quyidagi QR-kod orqali tanishishingiz mumkin:



XALQARO TA'LIM MAYDONI SARI

Samarqand davlat chet tillar instituti rektori Bahodir Xoliqov boshchiligidagi delegatsiya Ispaniyaning Madrid shahrida joylashgan Servantes Institutiga tashrif buyurdi.

1991-yilda tashkil etilgan Servantes Instituti — ispan tilini xorijiy mamlakatlarda rivojlantirish, o'qitish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ispan tilining xalqaro nu-

stituti bosh kotibi Karmen Noguero xonim hamda Akademik ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Raquel Romero Guillemas xonimlar rasmiy qabul qilishdi.

Uchrashuvda tomonlar o'rtasida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha qator masalalar muhokama qilindi. Avvalo, Samarqand davlat chet tillar instituti huzurida DELE imtihon

shi bo'yicha qo'shma metodik markaz ochish masalasi ko'rib chiqildi. Ushbu markaz doirasida o'qituvchilarni tayyorlash, ELE metodikasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish, raqamli resurslar bilan ishlash hamda rasmiy ELE dasturlari asosida malaka oshirish bo'yicha hamkorlik istiqbollari belgilandi.

Keyingi masala AVE Global platformasini SamDCHTI o'quv jarayoniga integratsiya qilishga bag'ishlandi. Talabalar va o'qituvchilar uchun institutsional obuna joriy etish, platforma modullarini dars jarayoniga tatbiq etish hamda institutda AVE Global o'quv-resurs markazini tashkil etish bo'yicha takliflar bildirildi.

Shuningdek, Servantes institutining raqamli kutubxonalar tarmog'i — RBIC bilan to'liq hamkorlik masalasi ham muhokama qilindi. SamDCHTI Axborot-resurs markazini RBICning rasmiy hamkor sifatida akkreditatsiya qilish va institut jamoasi uchun ispan tilidagi ilmiy manbalardan foydalanish imkoniyatini yaratish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi.



fuzini oshirishga mas'ul bo'lgan eng nufuzli davlat tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Dunyoning 90 dan ortiq mamlakatlarida mazkur oliygohning markazlari mavjud bo'lib, ELE metodikasi, AVE Global platformasi, shuningdek, DELE va SIELE imtihon tizimlari uning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Delegatsiyaini Servantes

markazini tashkil etish masalasi ko'rib chiqildi. Servantes instituti talabalariga mos ravishda jihozlangan imtihon xonalarini tashkil etish va Samarqanddagi markazni mintaqaviy akkreditatsiya markaziga aylantirish bo'yicha takliflar muhokama qilindi.

Shuningdek, (ispan tili xorijiy til sifatida) ELE yo'nali-

Xizmat safari bilan Germaniyada bo'lib turgan Bahodir Xoliqov boshchiligidagi Samarqand davlat chet tillar instituti delegatsiyasi O'zbekiston va Germaniya oliy ta'lim muassasalari forumi doirasida Berlin shahridagi Humboldt universitetining Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti mas'ullari bilan hamkorlik bitimi imzoladi.

HUMBOLDT TALABALARI UCHUN YOZGI MAKTAB

Mazkur hujjatga ko'ra, Markaziy Osiyo tadqiqotlari yo'nalishida talabalar va o'qituvchilar almashiuvi dasturlari yo'lga qo'yiladi. 2026-yilning aprel oyida Humboldt universitetining 16 nafar talabasi uchun Samarqand davlat chet tillar institutida yozgi maktab tashkil etilishi belgilandi. Yozgi maktab davomida talabalarga o'zbek tili va madaniyati hamda O'zbekiston tarixi bo'yicha maxsus kurslar o'tiladi. Shuningdek, Humboldt universiteti professorlari Manya Shtefan (Manja Stephan) va Ayfer Durdular tomonidan ikki oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun seminar-treninglar tashkil etiladi.

Sahifa SamDCHTI Axborot xizmati materiallari asosida tayyorlandi

Samarqand davlat chet tillar instituti “Ispan va italyan filologiyasi” kafedrasida Perudja xorijliklar universiteti vakillari, “Corriere della Sera” gazetasi muxbiri Maria Grazia Ligato va uning ilmiy-tahliliy guruhi bilan uchrashuv tashkil etildi.



TADBIR TILSHUNOSLIK ISTIQBOLIGA BAG‘ISHLANDI

Samarqand davlat chet tillar institutida “Ingliz filologiyasi” kafedrasida jamoasi tashabbusi bilan “Tilshunoslikda lingvodidaktika, lingvofalsafa hamda tarjimashunoslik jarayonlashuvi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi.

Professor-o‘qituvchilar, yosh tadqiqotchilar, talaba va magistrlar ishtirok etgan tadbirni Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor O. G‘aybullayev ochib berdi.

Konferensiyada O‘zbekiston, AQSh, Misr, Eron, Tojikiston, Rossi-



ya va Italiya oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlar olimlari va malakali mutaxassislari o‘z ma‘ruzalari bilan qatnashib, tilshunoslikning dolzarb masalalari, lingvodidaktika istiqbollari hamda tarjimashunoslikning zamonaviy tendensiyalari haqida fikr almashishdi.

Tadbir ilmiy muloqot va tajriba almashish maydoni sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

Aziza OTAQULOVA,
Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi

Tug‘ilgan kunni nishonlash turli xalqlarda turlicha. Lekin tavallud topgan kishini tabriklash, oila a‘zolari, qarindoshlar va do‘stlar uchun dasturxon yozish, sovg‘a berish, tort kesish va baxt tilash kabi umumiy an‘analar mavjud. Tug‘ilgan kun — bu insonning dunyoga kelgan sanasi sifatida nishonlanadi. U inson hayotida yana bir yil ortda qolib, yangi marralar sari qadam qo‘yayotganining ramzi sifatida qadrlanadi.

“ANTIQA TABRIK”DAN DIL OG‘RIMASIN

Keyingi yillarda yoshlar orasida g‘alati, hatto jirkanch bir odat shakllanib boryapti. Kimningdir tug‘ilgan kuni bo‘lsa, o‘rtoqlarining “hazil”i sifatida tuxum sotib olinib, tavallud topgan kishining boshiga uriladi. Avvaliga buni oddiy hazil sifatida qabul qilgan bo‘lsak, keyinchalik bu qiliq an‘anaga aylandi: tuxumning yoniga “ketchup”, “mayonez”, un, kir yuvish kukuni, “gel”, tort va boshqa narsalar ham qo‘shila boshlandi. Eng yomoni, tavallud topgan kuni nishonlanayotgan insonning boshi, yuzi va kiyimlariga oziq-ovqat mahsulotlari hamda kimyoviy vositalar to‘kiladi. Bu jarayon, albatta, videoga olinadi va ijtimoiy tarmoqlarda “antiqa tabrik” sifatida tarqatiladi. Bu singari videolar esa yoshlar orasida “targ‘ibot” uchun

juda “yaxshi” xizmat qiladi. Bunday ko‘rinishdagi “hazil”lar, avvalo, isrofgarchilik hisoblanadi. Axir non va boshqa yeguliklarni aziz biladigan xalqmiz; tuxum, un yoki boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini bekorga sochish, oyoq osti qilish na ma‘naviyatimizga, na madaniyatimizga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, turli kimyoviy vositalarni inson tanasiga surtish sog‘liq uchun ham xavfli ekanini unutmaslik kerak. Eng yomoni, bu “antiqa tabrik” kimlargadir ozor berib, dilini og‘ritishi mumkin.

Bu holatga siz nioma deysiz, aziz gazetxon?

Muxlisa UBAYDULLAYEVA,
Sharq tillari fakulteti talabasi

“CORRIERE DELLA SERA” GAZETASI IJODKORLARI INSTITUTDA

Dastlab, kafedra mudiri A.Shomahmudova kafedraning o‘quv va ilmiy yo‘nalishlari, ta‘lim dasturlari hamda olib borilayotgan tadqiqotlar haqida batafsil ma‘lumot berdi. Shundan so‘ng, mehmonlar kafedra professor-o‘qituvchilari bilan tajriba almashish va hamkorlik istiqbollari yuzasidan fikr almashishdi.

Samarqand davlat chet tillar instituti va Perudja xorijliklar universiteti o‘rtasida akademik hamkorlikning yangi yo‘nalishlari muhokama qilindi. Maria Grazia Ligato kafedra o‘qituvchilarining mehnatsevarligi, kasbiy mahorati va fidoyiligini yuksak baholadi va qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga tayyor ekanliklarini bildirdi.

Farzona SHERZOD qizi,
institut talabasi

YOSHLAR – KORRUPSIYAGA QARSHI

Samarqand davlat chet tillar institutida 9-dekabr – “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan talaba yoshlar o‘rtasida “Korrupsiya kelajakka tahdid!” mavzusidagi eng yaxshi rasmlar, “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” mavzusidagi eng yaxshi insholar, “Korrupsiyadan holi ta‘lim muassasasi” mavzusidagi eng yaxshi videoroliklar tanlovlari o‘tkazilib kelinmoqda.

Tanlovlar yakunlangach, Hay‘at a‘zolari tomonidan g‘oliblar aniqlanib, belgilangan tartibda taqdirlanadi.

Lola IBRAGIMOVA,
institut talabasi

“50 FOIZ CHEGIRMA, BIR DONA QOLDI”

Ijtimoiy tarmoqlarda onlayn do‘konlar soni tobora ko‘paymoqda. Ular ichida asl va sifatli mahsulotdan ko‘ra soxta mahsulot sotuvchilari ko‘proq. Ana shunday onlayn xaridlarga aldanayotganlar ham kam emas. Firibgarlik yo‘li bilan pul topayotgan “tadbirkor”lar sizni shunchalik ishontirishadiki, ularning tuzog‘iga tushganingizni bilmay qolasiz. Bizni ishontiradigan narsa — xaridorlarning “otziv”lari, ya‘ni izoh va fikrlaridir. Afsuski, ularning hammasi soxta ekanini e‘tibor bilan kuzatsangiz siz ham bilasiz.

Ba‘zan ko‘pchilik kishilar “Saytda yoki kanalda kuzatuvchi ko‘p, “layk” ham anchagina, demak, ishonchli”, degan noto‘g‘ri tushunchaga ega bo‘lishadi. Aslida esa, raqamlar ham sotib olinadi. Bir necha daqiqa ichida kanalga o‘n minglab soxta kuzatuvchi qo‘shish muammo emas. Onlayn mahsulot xaridorlari avvalo profil kuzatuvchilari ko‘p yoki kamligiga e‘tibor berishadi, keyin boshqa ma‘lumotlarga qarashadi. Diqqat qilsangiz, “to‘lov oldindan, karta orqali” degan talabnoma ko‘zingizga tashlanadi.

Siz mahsulotga qiziqib, u haqida ma‘lumot olasiz va sotib olish jarayonida karta orqali to‘lov qilganingizdan so‘ng soxta firibgarlarning qarmog‘iga ilinasiz. Shu zahoti “blok”ka tushasiz, ular pulingizni

Fikr va izohlarga shubha bilan yondashuv kerak — ba‘zan yaxshi izohlar bir xil uslubda bitilgan bo‘lib, ularni sotuvchining o‘zi yozgan bo‘ladi.

Bundan tashqari, bugungi kunda ko‘plab taniqli san‘atkorlar, sportchilar va blogerlar ham ma‘lum mahsulotlarni yaxshi pul (gonorar) evaziga reklama qilishmoqda. Lekin ularning hammasi ham reklama qilinayotgan mahsulotni o‘zi ishlatib yoki iste‘mol qilib ko‘rmagan. Shuning uchun hatto sevimli blogeringiz tavsiyasiga ham ko‘r-ko‘rona ishonish to‘g‘ri emas.

Yana bir muhim jihat — psixologik tuzoqlar. Masalan: “Faqat bugun chegirma!”, “Uch dona qoldi!”, “Tez buyurtma bering, aks holda kech bo‘ladi!” kabi yozuvlar sizni shoshilinch qaror chiqarishga undaydi. Aslida esa, bular oddiy marketing hiylalaridir. Onlayn xaridni xavfsiz va foydali qilish uchun siz-u bizdan faqat e‘tibor, sinchkovlik va bilim talab qilinadi.

Ozoda RASULBERDIYEVA,
Sharq tillari fakulteti talabasi



olgan zahoti izsiz g‘oyib bo‘lishadi. Shuning uchun onlayn xarid qilishdan oldin bir nechta oddiy, ammo muhim qoidalarga amal qilish tavsiya etiladi. Avvalo, do‘konning ishonchligini tekshiring: profildagi kontaktlar haqiqiy mi boshqa ma‘lumotlarga qarashadi. Diqqat qilsangiz, “to‘lov oldindan, karta orqali” degan talabnoma ko‘zingizga tashlanadi.

Yaqinda bir do‘stim uylandi. To‘ydan uch-to‘rt kun oldin uyiga borib hasharda qatnashdik. Xonadonini ta‘mirladik va to‘y xarajatlarini hisob-kitob qildik. Ozigina jamg‘argan pulim bor edi, shuni do‘stimning onasiga oldindan to‘yona sifatida berdim. Onaxon duo qilib, alqab qolsa bo‘ladimi: “Topganing to‘ylarga buyursin”, deb. Bu rostdan ham duo bo‘ldimi yoki qarg‘ish?

PULNI HAVOGA SOVURISH

O‘ylab qoldim. Chunki, mening nazarimda yillar davomida qilingan mehnat ortidan pul jamg‘arib, bir kunlik to‘y uchun sarflab yuborish ahmoqlikdan boshqa narsa emas. Aslida, bizda mana shunday holatlar — ahmoqlik emas, balki odat tusiga kirib qolgani bois dabdabozlikka berilayapmiz, isrofgarchilik avj olmoqda.

Sinfdoshim ikki-uch yildan buyon ishga “velik”da boradi, to‘yi kuni esa 200 AQSh dollari to‘lab, “Gelik”da yurdi.

Bir umr oylik maosh bilan kun kechirgan xizmatchining qizi bo‘lmish kelin ham anoyildan emas ekan. Uning ham orzu-havaslari katta bo‘lib, “qiymati 2000 AQSh dollari bo‘lgan kelin libosini kiymasam, to‘y bo‘lmaydi”, debdi. Mayli, orzu-havas degan narsa bor, albatta. Lekin bir kunlik to‘y uchun o‘rtacha 80–100 million so‘m mablag‘ni qaysi aqlli inson havoga sovuradi?!

Isrofgarchilikning eng kattasi to‘ylarimizda uchraydi. Dasturxonidagi noz-ne‘matlarning



asosiy qismi yeyilmasdan isrof bo‘ladi. To‘yga kelgan mehmonlar yeguliklardan bir-bir totib ko‘rishadi va birinchi ovqatni yegach to‘yxonani tark etishadi. Ikkinchi va uchinchi ovqatlar isrof bo‘lib qolaveradi. Shuncha pul bir kunda sarflab yuborib, kuyov to‘yning ertasi kunioyq Rossiyaga ishlash uchun yo‘lga

Bobur BAHODIROV,
Sharq tillari fakulteti talabasi